Takash Alouddin Muhammad Xorazmshoh



Takash Alouddin Muhammad Xorazmshoh

Alouddin Muhammad Xorazmshoh

(taxm. 1152-1200 yil 3-iyul)

(1172-1200)

Xorazmshohlar davlatida hukmronlik qilgan *anushteginiylar* sulolasi vakili. To‘liq ismi Alouddin Takash ibn Elarslon ibn Otsiz ibn Anushtegin.

Takash otasi Elarslon vafoti arafasida Jand viloyati voliysi bo‘lib turgan. Shuning uchun Elarslon kenja o‘g‘li ***Sultonshoh***ni valiahd qilib tayinlaydi va Sultonshoh taxtga o‘tirgan (1172 yil). Takash Sultonshohni tan olmasligini aytgach, Sultonshoh unga qarshi onasi maslahati bilan qo‘shin jo‘natgan. Takash esa qoraxitoylar malikasi ***Chen Tiyon*** (1164-1177 yillar)ga har yili o‘lpon to‘lab turishi haqida va’da berib, o‘gay ukasi Sultonshoh bilan kurashish uchun harbiy yordam so‘ragan va undan olgan qo‘shin bilan Gurganch (Ko‘hna Urganch)ga yurish qilgan. Sultonshoh va onasi ***Turkon xotun*** Xurosonga qochgan. Gurganchni qo‘lga kiritgach, Takash 1172 yil 11-dekabrda xalqning madadi bilan rasman Xorazm taxtiga o‘tirgan. Lekin, ukasi bilan Xorazm taxti uchun yana 20 yil kurash olib borishga majbur bo‘lgan.

Sultonshoh vafotidan so‘ng Xurosonning Toliqon – Marvirud – Hirot yo‘nalishidagi yerlar Takashga o‘tgan. U o‘g‘li ***Nosiruddin Malikshoh***ni Marvga, boshqa o‘g‘li ***Qutbiddin Muhammad*** II ni Nishopurga voliy qilib tayinlagan. Shundan so‘ng Takash Sharqiy Eronga o‘z ta’sirini o‘tkazish bilan birga, G‘arbiy Eron ishlariga ham aralasha boshlagan. Takash Sultonshohga qarshi kurashayotgan vaqtida (1172-1193 yillar) *g‘uriylar, saljuqiylar* va *abbosiy xalifalar*, hatto ba’zan *qoraxitoylar* bilan ham yaxshi munosabatlarni saqlab ular bilan do‘stona maktublar yozishib turgan (bu maktublar mazmuni saqlanib qolgan).

1192-93 yillarda saljuqiylar sultoni ***To‘g‘rul III*** Takash bilan yaxshi munosabatni saqlash uchun uning o‘g‘li ***Yunusxon***ga o‘z qizini bergan va sulh shartnomasini tuzgan, bunga ko‘ra Ray xorazmshoh mulki deb tan olingan. Lekin, To‘g‘rul III shartnomani buzgan. To‘g‘rul III ga xalifa ***an-Nosir*** ham qarshi bo‘lib, u

Takashga maktub yozib To‘g‘rul III ga qarshi kurashda yordam so‘ragan. Takash 1194 yil 4-martdagi jangda To‘g‘rul III qo‘shinlarini mag‘lubiyatga uchratib, unga qaram yerlarni o‘z tasarrufiga qo‘shib olgan, lekin, xalifaga o‘ljadan hech narsa tegmagan. Bu ular o‘rtasidagi munosabatlarning buzilishiga olib kelgan. To‘g‘rul III vafot etgach, Eron va Iroqi Ajam yerlari Xorazmga o‘tadi, saljuqiylar sulolasi barham topadi.

Takash o‘sha yildan e’tiboran ***“sulton”*** unvonini qo‘llay boshlaydi. U 1195 yilda Kirmonni o‘ziga bo‘ysundirgan. Umrining oxirgi yillarida *ismoiliylar* bilan muvaffaqiyatli kurash olib borgan. 1200 yil xalifa bilan munosabati yana yomonlashgan Takash Bag‘dodga yurish qilgan, lekin yarim yo‘lda Nishopur va Xorazm oralig‘idagi Shahriston shahrida vafot etgan. Takashning jasadi Gurganchga keltirilib o‘zi qurdirgan katta madrasa qoshidagi maqbaraga dafn qilingan.

O‘rta asr mualliflarining yozishicha, Takash adolatparvar, iqtidorli, buyuk diplomat va lashkarboshi bo‘lgan. Takash musiqani sevgan, udni juda yaxshi chalgan, hozirjavob bo‘lishi bilan birga siyosiy ahvolni to‘g‘ri baholab, harbiy kuchdan to‘g‘ri foydalana olgan. Takash qipchoq xoni ***Jonkishi***ning qizi Turkon xotunga uylangan. Uning bilan birga kelgan qipchoqlar keyinchalik mamlakat tanazzuliga sabab bo‘lgan. Takash davrida Xorazmshohlar davlati kuchaygan. U o‘g‘li ***Qutbiddin Muhammad***ga markazlashgan mustahkam davlat va tashkiliy jihatdan qudratli qo‘shinni meros qoldirgan.

2023-10-29 23:35:32